




ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

6
2020



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2020-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Umedjon JUMAYEV

Zarina ASHUROVA

Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta'lim kafedrası
magistrlari**JA'HON MAKTABGACHA TA'LIMI RIVOJIDA NOAN'ANAVIY MASHG'UOTLAR: VALDORF, MONTESSORI PEDAGOGIKASI**

Maqolada jahon rivojlangan davlatlari maktabgacha ta'lim tizimida noan'anaviy mashg'ulotlarning o'rni va bu mashg'ulotlarni tashkil etishda Waldorf, Montessori maktabgacha ta'lim muassasasining pedagogikasi va uning ahamiyati haqida bayon etilgan.

Tayanch iboralar: noan'anaviy mashg'ulotlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, Waldorf pedagogikasi, Montessori pedagogikasi, Waldorf maktabgacha ta'lim muassasalari, Montessori maktabgacha ta'lim muassasalari, bizibord.

В статье рассматривается роль нетрадиционных уроков в системе дошкольного образования в развитых странах мира, педагогика дошкольного учреждения Валдорф и Монтессори и ее роль в организации этих уроков.

Ключевые слова: нетрадиционные уроки, современные образовательные технологии, Вальдорфская педагогика, педагогика Монтессори, Вальдорфские программы дошкольного образования, Программы дошкольного образования Монтессори.

The article reveals the role of non-traditional classes in the system of preschool education in developed countries and the importance of Waldorf and Montessori concept in the organization of these classes.

Key words: non-traditional lessons, modern educational technologies, Waldorf Pedagogy, antessori Pedagogy, Waldorf preschools, Montessori preschools, busyboard

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning o'dob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Shavkat Mirziyoyev

Hozirgi kunda bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ularni an'anaviylik bilan biron-bir mashg'ulot yoki faoliyatga qiziqtirib bo'lmaydi. Dunyo rivojlangan mamlakatlarning barchasida maktabgacha ta'limda noan'anaviylikka tayanib, har bir bolani maktabgacha yoshdan ijodkor, qobiliyatli qilib tarbiyalashning yangi ko'rinishdagi metodlarni, texnologiyalarni, konsepsiyalarni ishlab chiqish ustida bosh qotirishadi.

Yangi standartlar maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda nostandart yondashishni talab qiladi. Bizning davrimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga to'g'ri ta'lim va tarbiya berishni tashkil etishning yangi shakllari va usullarini izlash nafaqat tabiiy, balki zaruriy hodisa hamdir. Bolalar bog'chasida har bir bolaning faol ishtirokini ta'minlaydigan, bolalarning shaxsiy javobgarligini oshiradigan bunday faoliyat turlari alohida o'rin tutadi. Buni nostandart ta'lim va tarbiya shakllari texnologiyasi orqali muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Ushbu mashg'ulotlarning maqsadi: zerikarli mashg'ulotlarni jonlantirish, bolalarda ijodkorlikni uyg'otish, bolalarning faoliyat turlariga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishdir. Chunki qiziqish barcha o'quv faoliyati uchun katalizator hisoblanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi: dunyo rivojlangan davlatlari ta'lim darajasiga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalash". Shunday ekan, endigi vazifamiz - rivojlangan davlatlarning mentalitetimizga mos keladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash va yangilarini ishlab chiqishdan iboratdir. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi ta'lim sohasida sezilarli darajada o'zgarishlarga olib keldi.

Maktabgacha ta'limni jadal rivojlantirishning zamonaviy sharoitida har bir tarbiyachi noan'anaviy mashg'ulotlarni tashkil etishga ijodiy yondashishi talab etiladi. Bu mashg'ulotlarni har xil va qiziqarli tarzda o'tkazish tarbiyachi ishining o'ziga xosligi va turli sohalarida mutaxassis bo'lishini taqazo etadi.

Noan'anaviy mashg'ulotlar bolaning ma'naviy, axloqiy, hissiy va intellektual rivojlanishi, bilim va ijodiy faolligini rivojlantirish, material bo'yicha ko'nikma va bilimlarni shakllantirish uchun boy imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

Noan'anaviy mashg'ulotlar tashkil etish:

- bolaning rivojlanish darajasini oshirish;
- insonning axloqiy fazilatlarini, qarashlarini shakllantirish;
- bolalarni bilim olishga qiziqtirish;
- bolalarda ijodkorlik, iroda, his-tuyg'ular va turli qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatish paytida

nutq, xotira, diqqat, tasavvur, idrokni boyitishga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlarda bunday yangi noan'anaviy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha "Valdorf" maktabgacha ta'lim tashkilotlari yetakchi o'rin egallaydi. "Valdorf" maktabgacha ta'lim tashkilotlarida – "Valdorf" pedagogikasi asosida bolalarga ta'lim-tarbiya beriladi. Valdorf pedagogikasi XX asrning 20-yillarida Germaniyada Rudolf Shtayner tomonidan tuzilgan. 1919-yilda Germaniyaning Shtutgard shahrida birinchi Valdorf maktabi ochilgan. Uning yaratilishi Valdorf-Astoria tamaki fabrikasi direktori Emil Molt (1876-1936) tomonidan boshlangan. Molt maktab yaratish va uning pedagogik rahbarligini o'z zimmasiga olish to'g'risida iltimos bilan nemis faylasufi va olimi Rudolf Shtaynerga murojaat qildi.

Keyinchalik 1920-yilning birinchi yarmida Germaniyaning turli shaharlarida yana sakkizta shu kabi maktablar paydo bo'ldi. Ularning barchasi Rudolf Shtaynerning Valdorf pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya berilishiga qaratilgan edi. Valdorf maktablarining barchasi 1938-yilga kelib Germaniyaning fashistlari tazyiqi ostida yopildi va 1990-yilga kelibgina qayta o'z faoliyatini tiklashga muvaffaq bo'ldi. Birinchi Valdorf maktabi ochilgandan ko'p o'tmay, xuddi shunday ta'lim muassasalari Germaniyadan tashqarida paydo bo'lishni boshladi. Masalan, 1925-yilda bunday maktablar Shveysariyada o'z faoliyatini boshladi, ular "Rudolf Shtayner maktablari" deb nomlandi. 1923-yilda Gollandiyada Vrije maktabi ("Erkin maktab") deb nomlangan maktablar tashkil etila boshlandi. Tez orada "Rudolf Shtayner maktablari" Angliyada (1925-yildan Londonda), Portugaliya (Lissabon), Norvegiyada (1926) va AQShda (1928-yilda Nyu-Yorkda) ochildi va ularning barchasida Valdorf pedagogikasi asosida ta'lim berish yo'lga qo'yildi. 2000-yilga kelib Valdorf pedagogikasi asosida tashkil etilgan birinchi maktabgacha ta'lim tashkilotlari paydo bo'ldi.

Valdorf maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari ko'plab rivojlangan davlatlarda XXI asrning noan'anaviylik timsoli sifatida baholanib kelmoqda. Hozirgi kunda Valdorf pedagogikasi asosida yuritiladigan eng ko'p maktabgacha ta'lim muassasalari Germaniyada, so'ng Amerika Qo'shma Shtatlarida tarqalgan bo'lib, dunyo miqyosida 870 dan ortiq muassasalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Valdorf ta'limining tuzilishi Rudolf Shtayner tomonidan ishlab chiqilgan bolalikning rivojlanish nazariyasiga asoslanadi. Rudolf Shtayner bolalarning rivojlanishini uchta rivojlanish bosqichida bo'lgan va har bir bosqich uchun uchta aniq ta'lim strategiyasidan foydalangan. Ushbu bosqichlarning har biri taxminan etti yil davom etadi. Shtayner pedagogikasiga ko'ra odamlarning etti yillik ruhiy sikllarda rivojlanishiga ishongan. Bolalarning rivojlanish bosqichlari:

- (0-7 yosh);
- (7-14 yosh);
- (14-21 yosh).

Valdorf pedagogikasida maktabgacha ta'lim muassasalarining xonalaridan tortib, uning jihozlarigacha, hattoki jihozlarning xomashyolarigacha qaytarzda tashkil etish ta'kidlab o'tilgan.

Valdorf ta'lim metodikasining asosiy g'oyasi: bolalarga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatlarni qulay sharoitda, qo'rquv va stresssiz, uning harakatlariga hech qanday baho berishni kutmasdan rivojlantirish imkoniyatini berishdir. Valdorf pedagogikasining mohiyati shundan iboratki, ta'lim majburlashsiz va bolaning o'ziga xos shaxsini ochib berishga qiziqtirish bilan amalga oshiriladi. Valdorf maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nafaqat maktabgacha dasturlari mashg'ulotlari bo'yicha o'qitishga, balki axloq, insonparvarlik, ishonch, hurmat va o'zaro yordam kabi fazilatlarini tarbiyalashga ham katta e'tibor beriladi.

Valdorf maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar birinchi navbatda hissiy jihatdan kamol topishi kerak, so'ngra u intellektual rivojlanishni boshlashi mumkin deb ta'kidlanadi. Valdorf o'qitish metodikasi bilan shug'ullanadigan pedagolarglarining fikriga ko'ra, bola ish va ijodiy faoliyat jarayonida dunyoni yaxshiroq o'rganadi.

Valdorf maktabgacha ta'lim tashkilotlari do'stona va qulay muhit bilan boshqa maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan ajralib turadi. Tashkilotlarda bolaning o'zi uchun qiziq bo'lgan faoliyat turini o'zi tanlaydi va tarbiyachi shaxsi tarbiyalanuvchilarga munosib o'rnatilgan bo'lishi shart. Valdorf pedagogikasida tarbiyachi, avvalambor, bolalar e'tibor beradigan shaxsdir. Tarbiyachilar doimo rivojlanib, namuna bo'lishlari kerak. Asosan bitta tarbiyachi bir nechta faoliyat turlarini o'qitadi.

Valdorf pedagogikasining maqsadi nafaqat hissiy mukammal, intellektual rivojlangan bolani, balki o'zining imkoniyatlarini biladigan, o'zining harakatlari uchun javobgar va boshqalarga yordam berishga tayyor bolani tarbiyalashdir. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ularning temperamentiga alohida e'tibor beriladi va mashg'ulotlar davomida bir xil temperamentli bolalar bitta stol atrofiga joylashtiriladi.

Valdorf pedagogikasi tamoyillari:

bola yoshlikdagi quvonchdan ko'proq bahramand bo'lishi kerak;
maktabgacha guruhlarida bolalar guruhlararo muloqot o'rnatib, turli yoshdagi bolalar oilaga o'xshash qulay muhitda tarbiyalanishi kerak;
xonalarini jihozlashda faqatgina tabiiy materiallardan foydalanish zarur;
o'yinlar davomida ham tabiiy xomasholardan foydalanish zarur;
mashg'ulot davomida televizor va kompyuter ishlatish mumkin emas.

Valdorf pedagogikasining metodikasi shundan iboratki, mashg'ulotlarda bola miyasi kamolotining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Muassasada bolalar musiqa, rasm chizish, hikoyalar aytish va tinglash (hissiy sohani rivojlantirish) bilan shug'ullanadilar. Mashg'ulotlarda ko'proq ijodkorlikka e'tibor beriladi. Bolalar spektakllar va sahna ko'rinishlari namoyish etishadi, festivallar tashkil qilishadi. Bu orqali bolalarga ijodiy fikrlashni rivojlantirishadi. Bolalarga matematika, ingliz tili kabi mashg'ulotlar majburan o'rgatilmaydi, ularni kitob o'qishga ham Valdorf muassasalarida undashmaydi. Asosiy e'tibor bolaning ichki kechinmalariga, ijodkorligiga, erkinligiga qaratilgan. Bola qachon ruhiy kamolotga erishsa, o'sha vaqtdan boshlab uning intellektual jihatdan rivojlanishi uchun boshqa mashg'ulotlar jadvalga kiritiladi.

Valdorf maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar uchun eng qiziqarli mashg'ulotlardan biri bu - suvga cho'milish usuli orqali bolalarning ichki xotirjamligini saqlashdir. Bu muassasalarda bitta mashg'ulot oylab o'tiladi. Valdorf maktabgacha ta'lim muassasalarining bir muhim qirrasini shundaki, mashg'ulotlar tabiat bilan uyg'unlikda tashkil etiladi. Bolalar hayvonlarga g'amxo'rlik qiladilar, o'simliklar ekadilar va o'stiradilar, ko'p vaqtlarini ochiq havoda o'tkazadilar. Muassasadagi o'yinlar didaktik shaklda tashkil etiladi. Bu bolaga fantaziya qilish va o'yinning yangi rasmlari va syujetlarini yaratish imkoniyatini beradi. Guruhdagi o'yinchoqlarning aksariyatini bolalar tarbiyachilar bilan birgalikda tabiiy xomashyolardan soddada usulda tayyorlaydilar.

Valdorf pedagogikasining muhim xususiyati: sinfdagi hayot ritmi faoliyatini o'zgartirish prinsipiga muvofiq tashkil etilgan, ya'ni harakatchanlik talab etadigan mashg'ulotdan so'ng bolalarni xotirjam qila oladigan mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Valdorf muassasalarida tadbirlar ko'p tashkil etilib, barcha tadbirlarda ota-onalar ishtirok etishlari shart hisoblanadi. Hattoki guruh xonalarini bezatishda, o'yinchoqlar yasashda ota-onalar ko'maklashadilar. Bu mashg'ulotlar orqali bolalar va kattalarning bir-birini tushunishi, ahil yashash, hayotdan birgalikda zavqlanish tuyg'ularini ota-onalar va bolalarga singdirishadi. Bu muassasalarda barcha faoliyat turi bo'yicha har bir guruhga bitta tarbiyachi birlashtiriladi. Sababi bolalar boshqa tarbiyachidan cho'chishi va bu orqali o'z ijodkorligini namoyon etishda deb ta'kidlanadi. R. Shtayner pedagogikasida bolalarda intellektual rivojlanishni erta boshlashdan bosh tortilgan. Dastlab bolalar hissiy jihatdan kamol topishlari, baxtni his etishlari guruh bolalari bilan bir oila bo'lishni o'rganishlari zarur deb belgilangan.

Keyingi qiziqarli no'anaviy mashg'ulotlardan biri bu - bog'dorchilikdir. Bolalar va tarbiyachilar birgalikda guruh uchun belgilangan maydonchada sabzavotlar ekishadi. Har kun bu ekinlarni sug'orib, hosil olguncha amaliy tarzda sabzavotlarning foydali xususiyatlarini bilib olishadi. Hattoki hosilni bolalar o'z qo'llari bilan yig'ib oladilar va shu sabzavotlarni iste'mol qiladilar. Valdorf maktabgacha ta'lim muassasasining barcha guruhlari uchun maydonchalar mavjud va barcha bolalar hamjihat mehnat qilib, o'z-o'ziga xizmat qilishni o'rganib boradilar. Bu bolalarda psixosomatik kasalliklarning oldini olishga qaratilgan. Chunki bola qancha ko'p tuproq, o'simliklar, gullar, nihollar bilan mashg'ul bo'lsa, unda shunchalik stress holatlari kamayadi. Bolaning hissiy va jismoniy sog'ligini saqlash va uni mustahkamlashga imkon beradi. Bolalar bog'dorchilik mashg'ulotlarida kognitiv faoliyat zavqini boshdan kechiradilar. Chunki maxsus tashkil etilgan muhit bolaning mashg'ulotlardan ilhomlanishiga qaratilgan.

Valdorf pedagogikasini qo'llash:

ta'lim samaradorligini oshirish;
tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilarning bir-birlarini tez tushunishlari;
pedagogik tajribani qo'llash;
fikran mustaqillikka erishish;
bolalarning ematsional kamoloti;
bolalar sog'ligini saqlash;
bolalar sog'ligini mustahkamlash;
ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda o'z hissasini qo'shadi.

Barcha mashg'ulotlarda bolalarga o'z-o'zini yuqori baholash shakllantiriladi. Shuning uchun faoliyatda muvaffaqiyat kafolatlanadi. Bolada o'zini namoyon qilish va o'zini muvaffaqiyatli his qilish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud.

Valdorf muassasalarida mashg'ulotlar davomida, o'yinlarda va musobaqalarda bolalarni bir-birlari bilan raqobatlashtirish mumkin emas. Raqobatlashish muassasaning ichki qoidalari asosida man etilgan. "Barcha ota – onalar farzandlarini aqlli, maktabda yaxshi baholarda o'qishini xohlashadi. Buning uchun esa maktabgacha davrdan boshlab bolalarni mashg'ulotlarga, o'qishga qiziqitira borish kerak" - deb ta'kidlaydi rivojlangan davlatlar psixologlari.

Barcha rivojlangan davlatlar maktabgacha ta'lim tizimida an'anaviylikdan yiroqlashib, bolalar ta'lim – tarbiyasiga ijodiy yondashmoqdalar. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalari bunga namunadir. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalari Valdorf muassasalaridan tubdan farq qiladi. Valdorf muassasalarida asosiy e'tibor bolaning ruhiy kamolotiga qaratilgan bo'lsa, Montessori muassasalarida bolalarning intellektual jihatdan erta rivojlanishiga qaratilgan. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalari 25 ta rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan bo'lib, bu muassasalardagi barcha mashg'ulotlar noan'anaviy tarzda tashkil etiladi.

Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi: bolalarga konsentratsiya, motivatsiya, o'zini tuta bilish va o'qishga bo'lgan erkin qiziqishni rivojlantirishdan iboratdir.

Montessori erta rivojlanish metodikasining asosiy tamoyillari:

1. Bolalar shaxsini hurmat qilish. Montessori uslubining asosini bolaning shaxsiga, uning erkinligi, ehtiyojlari va qiziqishlariga hurmat ko'rsatishdir. Har bir bola o'z qonunlariga ko'ra rivojlanib boradigan noyob shaxsdir. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarga o'z qobiliyatlarini ochish va rivojlantirishda yordam berishlari kerak.

2. O'z-o'zini rivojlantirish. Montessori metodikasining ma'nosi - bu o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini o'rganish va bolaning o'zini rivojlantirishidir. Bola mustaqil ravishda rivojlanishi kerak. Bunda tarbiyachi unga yordam beradi. Ushbu tamoyilni quyidagicha shakllantirish mumkin: "Menga buni o'zim qilishimga yordam bering".

Montessori maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim poydevori Mariya Montessori metodikasidir. Mariya Montessori (1870-1952) italiyalik vrach va o'qituvchi bo'lib, o'zining pedagogik tizimi orqali dunyoda shuhrat qozongan pedagog olimdir. Mariya Italiya tarixida tibbiyot kursini tugatgan birinchi ayol edi. 1896-yilda u vrachlik darajasini oldi va Italiyadagi birinchi ayol shifokorlardan biriga aylandi. Tez orada Mariya aqli zaif bolalar muammosi bilan shug'ullana boshladi va ular uchun o'qitish uslublarini ishlab chiqdi. Uning metodikasi o'zini-o'zi rivojlantirish tamoyiliga asoslangan edi. Tez orada Mariya Montessori o'qitayotgan aqlan zaif bolalar yozish, hisoblash va o'qish qobiliyatlari bo'yicha sog'lom bolalardan o'zib ketdi. Bu haqiqiy sensatsiya edi.

M. Montessori usuli samarali ekanligini bilgandan so'ng, sog'lom bolalarni o'qitish usullari eskirganligi, ta'lim sohasiga bolalarni qiziqitirish uchun yangi metodika ishlab chiqish kerakligini angladi. Shunday qilib, Mariya sog'lom bolalarni o'qitishning yangi usulini yaratishga qaror qildi. U butun hayotini metodika yaratishga bag'ishladi va natijada butun dunyoda tan olingan bolalarni o'qitishning inqilobiy usulini yaratdi.

Montessori maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar an'anaviy sinflarda o'z tengdoshlari bilan mashg'ulotlarda ishtirok etadilar, ammo mashg'ulotlarning asosiy g'oyasi shundan iboratki: bolalar xona atrofida erkin harakatlanish va keng ko'lamli amaliy mashg'ulotlardan birini tanlash orqali individual va o'z xohish – istaklari asosida bilim olishlari kerak.

Montessori pedagogikasi o'z o'quvchilarining rivojlanish tezligini tezlashtirish va ularni boshqa tengdoshlari bilan taqqoslaganda ko'proq bilimga ega bo'lish vazifasini qo'ymaydi. Haqiqiy maqsad bolada mustaqillik, o'ziga bo'lgan ishonch va o'qishga qiziqishni rivojlantirishdir.

Montessori bog'ida har kuni kichikintoylar o'zlari uchun mashg'ulotlarni tanlashda erkin. Bu bolaning mashg'ulotdan zavqlanishini ta'minlaydi. Tarbiyachilar "faoliyatlarda" bolalarni diqqat bilan kuzatishadi va agar kerak bo'lsa yordam berishadi, lekin vazifaga ta'sir o'tkazishga urinish mumkin emas. Bundan tashqari, Montessori qo'llanmalari va materiallari bola kattalardan ko'rsatmalarisiz mustaqil ravishda foydalanishi uchun mo'ljallangan. Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarida bolaga yo'naltirilgan ta'lim asosida pedagoglar mas'uliyatni his etgan holda mashg'ulotlar tashkil etadilar.

Bola dastlab maktabgacha ta'lim muassasasiga tashrif buyurganda faqatgina o'z-o'ziga xizmat qilishni o'rganadi. Shaxsiy buyumlarini joylarga joylashtiradi, guruhni tartibga solishda yordamlashadi va eng qiziqarlisi barcha guruh bolalari pedagog bilan birgalikda o'zlari uchun turli tuman mevali va sabzavotli gazaklar tayyorlaydilar. Iste'moldan so'ng esa har bir bola o'z idishini o'zi yuvib qo'yishi kerak.

Sut, suv, va sharbatlarni esa o'zlari xohlagan vaqtda iste'mol qilishlari mumkin. Ya'ni oddiy kundalik hayot yumushlari orqali bolada mustaqillik tuyg'usi singdirib boriladi. Bolalar Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnatsevarlik asosida tarbiyalanadi.

Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarining o'quv dasturi besh qismdan iborat. Bular quyidagilar:

- madaniyatshunoslik mashg'ulotlari bo'limi;
- amaliy mashg'ulotlar bo'limi;
- hissiy rivojlanish mashg'ulotlari bo'limi;
- matematika mashg'ulotlari bo'limi;
- chet tillari mashg'ulotlari bo'limi;

Madaniyatshunoslik mashg'ulotlari bo'limi. Madaniyatshunoslik mashg'ulotlari bo'limi o'z ichiga - tarix, geografiya, san'at va musiqa kabi mashg'ulotlarni qamrab olgan. Ko'plab mavzular o'quv dasturining madaniy yo'nalishi bo'yicha ekskursiyaga birlashtirilgan. Bu kabi ekskursiya mashg'ulotlarida bolalar o'zlarining hamjamiyati va atrofidagi dunyo haqida ma'lumot oladilar. Pedagoglar borliqdagi barcha jonzoatlarni asrashni, ular haqida g'amxo'rlik qilishni o'rgatadilar. Madaniyatshunoslik mashg'ulotlari ham amaliy tarzda tashkil etiladi. Bolalar muzeylarga, madaniyat tashkilotlariga, mashhur insonlar uylariga, hayvonot bog'lariga, hattoki davlat organlariga, turli uyushmalariga pedagoglar bilan birgalikda tashrif buyuradilar. Ularning ishlarini kuzatadilar. Savollar berib, o'zlarini qiziqtirgan hodisalar haqida bahs-munozaralar tashkil etadilar. Har yili pedagoglar bolalar va ota-onalari bilan birgalikda xayriya tadbirlarini tashkil etadilar. Bolalar uylariga tashrif buyurib yetim bolalarga o'yinchoqlar, kiyim kechaklar, ovqatlar, shirinliklarni o'z qo'llari bilan tarqatadilar. Bu tadbirlar orqali bolalarda boshqa insonlarga nisbatan muhabbat, g'amxo'rlik tuyg'ulari rivojlantiriladi.

Amaliy mashg'ulotlar bo'limi. Amaliy mashg'ulotlar bo'limida bolalar kiyinish, gazak tayyorlash, nonushta tayyorlash, dasturxon yozish, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish kabi kundalik hayotiy ko'nikmalarni o'rganadilar. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar davomida ijtimoiy hayotda tengdoshlari bilan muloqot qilish va muloqotdagi eng zaruriy iboralar bilan tanishadilar. Masalan:

- iltimos qilish;
- minnatdorchilik bildirish;
- mehribon va foydali bo'lish;
- gapni to'xtatmasdan tinglash;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish.

Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarida har kuni bolalarning to'g'ri muloqotga kirishishni o'rganishlari uchun davra suhbatlari, bolalar o'rtasida dialoglar tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlarda o'ziga xos ko'nikmalarni o'rgatishdan tashqari, mustaqillikni va biron kishining fikriga qo'shilmasa norozilik bildirish ham o'rgatiladi. Keyingi bosqichda bolalar mashg'ulotlar davomida bajargan ijodiy asarlarini o'zlari baholaydilar, kamchiliklarini aytib o'tib, yutuqlarini ta'kidlab o'tadilar. Buning natijasida esa barcha bolalarda erkin fikrlash qobiliyati vujudga keladi va bolalar o'z fikrlarini kattalar yonida qo'rqmasdan ayta oladilar. Amaliy mashg'ulotlarda bola o'z rivojlanishida yetakchi rol o'ynaydi. Bu mashg'ulotlarning mohiyati bolani o'z-o'zini o'qitishga, o'z-o'zini o'rganishga va o'z-o'zini rivojlantirishga undashdir. Shuning uchun tarbiyachining roli odatdagidan sezilarli darajada farq qiladi: u bolani yetaklamaydi, balki unga ergashadi. Tarbiyachi amaliy mashg'ulotlarda bolalarning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qiladi, o'zlariga qiziq bo'lgan ishlarga e'tiborni qaratishga yordam beradi va bolaning yutuqlarini diqqat bilan kuzatib boradi.

Hissiy rivojlanish mashg'ulotlari bo'limi. Hissiy rivojlanish yo'nalishida bolalarga dunyoni turli xil sezgi a'zolari bilan his etish, sezgilar orqali predmetlarni idrok etish mahorati o'rgatiladi. Bu bo'limda asosan bolalarning sensor tarbiyasi rivojlantiriladi. Mashg'ulotlar davomida bolalar his – tuyg'ularini mustaqil tarzda tushuntira berishlari talab etiladi. Sensorli o'rganish bolalarga atrofni tasniflashga va sezgi organlarining rivojlanishiga yordam beradi. Bu matematika, geometriya va chet tillarini o'rganishda zarur bo'lgan qobiliyatlarni shakllantiradi. Bolalar his – tuyg'u orqali tasniflash, saralash va ajratishni o'rganadilar.

Bolalar hissiy rivojlantiruvchi mashg'ulotlar davomida o'zlarining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda mustaqil ravishda o'zlarida shaxsni shakllantiradilar. Buning uchun bolaga erkin va mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Erkinlik va mustaqillik bolaga dunyoni o'z tempida o'rganishga, mustaqillikni his qilishga, bilim faoliyatiga doimiy qiziqishni saqlab qolishga imkon beradi.

Matematika mashg'ulotlari bo'limi. Matematika mashg'ulotlar bo'limida bolalar amaliy mashg'ulotlar orqali raqamlarni aniqlashni, amallarni buyumlar orqali miqdoriga moslashtirishni, 10 lik tizimida qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishni mashq qiladilar. Bolalar matematik faktlarni yodlashdan tashqari ko'proq amaliy jihatdan predmetlar yordamida (kub, shar, o'yinchoqlar, idishlar) misollarni hisoblab beradilar.

Chet tillari mashg'ulotlari bo'limi. Tilshunoslik mashg'ulotlarida bolalar o'z ona tillarini va yana bitta chet tillaridan birini o'rganadilar. Mashg'ulotlarda bolalarning so'z boyligi oshiriladi yozish va o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar rivojlantiriladi. Amaliy materiallardan foydalangan holda, bolalar harflar tovushlarini, so'zlarni qanday qilib birlashtirishni, qanday qilib jumlar tuzishni o'rganadilar. Ushbu ko'nikmalarga ega bo'lgach, bolalarda o'z-o'zidan o'qish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Mantessori maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga yozish faqat qalamlarda o'rgatiladi. Pedagoglar barcha mashg'ulotlarni ochiq havoda tashkil etadilar.

Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarining ijobiy tomonlari:

qoidalar asosida yashashni emas, balki ularni yaratishga o'rgatadi;

bolalarni mustaqil o'qishga undaydi;

bolalar o'zlari qiziqqan mashg'ulotlarni o'rganadilar;

bolalarni o'z faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etish va rejalashtirishga o'rgatadi;

o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o'rgatadi;

bolalarni o'zaro bir-birlariga yordam berishga o'rgatadi;

o'zlarini qiziqtirgan savollarga mustaqil ravishda javob izlashga o'rgatadi;

bolalar xatolarini o'zlari topishga va tuzatishga o'rganishadi;

bolalar atrof-muhit, dunyo bilan tanishtiriladi;

kuchli mantiqiy va tahliliy qobiliyatlar rivojlantiriladi;

aql va nutqni rivojlantiradi.

Bolaga erta bolalikdan xos bo'lgan bunday fazilatlar unga keyingi hayotda yordam beradi, jamiyatda yaxshi moslasha oladi. Qoida tariqasida Montessori uslubida o'qitilgan odam katta yoshda juda muvaffaqiyatli bo'ladi. Maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ushbu mantessori maktabgacha ta'lim muassasalari va metodikasi o'z-o'ziga xizmat qilishga imkon beradi va bolalarga sog'lom bolalarga tenglashishda yordam beradi.

Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarining kamchiliklari:


haddan tashqari mustaqillik jamoadagi muloqot tajribasidan mahrum qiladi;

odatdagi o'yinchoqlar rad etiladi.

Hozirgi kunda barcha mantessori maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy o'yinchoqlari sifatida bizibordlar e'tirof etiladi. Bizibord - (Busyboard) ingliz tilidan olingan bo'lib, busy-band va board yog'och, taxtacha, ya'ni bandlik taxtachasi degan ma'noni bildiradi. Bu bolaning kichik motorikasini va fikrlashini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan, turli elementlarga ega bo'lgan yog'och taxta. Qoida tariqasida, bizibord taxtasida taktil elementlar, qulflar, g'ildiraklar, tugmachalar va kalitlarga ega eshiklar, kiyim-kechak buyumlari bog'ichlar, turli xil saralash moslamalari, tirgaklar, lampochkalar va boshqalar joylashtirilgan. Bizibordlar har yili bolalar yoshiga qarab murakkablashtiriladi (a rasm).



a rasm



b rasm



d rasm

Matematika mashg'ulotlari uchun maxsus matematikaga mo'ljallangan matematik bizibordlar ishlatiladi. Bu bizibordlar faqat sonlardan va tugmachalardan iborat bo'ladi (b rasm).

Montessori maktabgacha ta'lim muassasalarida eng ko'p qo'llaniladigan yana bir bizibord turi bu – geometrik figuralar koloniyasidan iborat biziborddir. Bu kabi bizibordlar bir necha mashg'ulotlar turlarida qo'llaniladi (d rasm). Valdorf, Mantessori maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishda pedagoglar kreativlikka asoslanib har bir bolaga mos bo'lgan ta'lim metodikasini tanlashadi.

Dunyodagi mavjud barcha jamiyatning kelajagi, taraqqiyoti ta'lim tizimining qay darajada taraqqiyot etgani bilan belgilanadi. Shu boisdan ham, hozirda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan davlatimizning uzluksiz ta'limni isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masaladir. Ta'lim-tarbiya jarayoni murakkab jarayon hisonlanadi. Uning murakkabligi shundaki,

modernizatsiya sharoitida ta'limning samaradorligiga erishishdir, samaradorlikka erishish esa ko'plab omillar, xususiyat va tendensiyalar bo'lishini talab etadi. Davr shiddat bilan o'zgarib boryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq yoshlar his etadi.

Shunday ekan, O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsiyalarni, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish, rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalangan holda, ularning eng ilg'or modernizatsiyalashgan sohalaridan foydalangan holda jahon talab darajasiga javob bera oladigan yosh avlodni tarbiyalash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish hozirgi maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan ustuvor maqsadlardan biridir.

Adabiyotlar

1. Rudolf Shtayner . Valdorf pedagogikasi asoslari. -T. 2012. 236 b.
2. Karlgrén F. Ozodlik uchun ta'lim (nemis tilidan tarjima qilingan). Moskva. 1993.
3. "Valdorf maktabida ta'lim" (maqolalar to'plami). Moskva. 1995.
4. Valdorf pedagogikasining qoidolari (3 yoshdan 9 yoshgacha). Nairi, 2008.
5. Pinsky A. A. Valdorf pedagogikasi (antologiya). -T. "Ta'lim", 2003.
6. Fauzek Y. I. Montessori bolalar bog'chasi. -M. 1915.
7. Ketrin Mak Tamani. Montessori metodikasi. -T. 2018.
8. Pola Polk Lillard. Montessori metodikasi asosida ta'limga yondashuv. - Nyu-York: Schocken Books, 1996.
9. Barbara Isaks. Montessori yondashuvini tushunish: Amaliyotda dastlabki ta'lim . -T. 2012.
10. Aleksandra Loseva. Krugosvet entsiklopediyasi .
11. Montessori, Mariya // Centipedes - Bluegrass. - M: Sovet Entsiklopediyasi, 1954. - S. 260. - (Buyuk Sovet Entsiklopediyasi : [51 jild] / bosh tahrir. B. A. Vvedenskiy ; 1949-1958, 28-jild).
12. Djumanova M. D. Bola shaxsiga yo'naltirgan ta'limda Montessori pedagogikasi. "Zamonaviy ta'lim jurnali", 2016-yil.
13. Salavatova O. A. Montessori metodikasi asosida bolalarni rivojlantirish. "Tavricheskiy nauchniy obrozovatel. 2016.

modernizatsiya sharoitida ta'limning samaradorligiga erishishdir, samaradorlikka erishish esa ko'plab omillar, xususiyat va tendensiyalar bo'lishini talab etadi. Davr shiddat bilan o'zgarib boryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq yoshlar his etadi.

Shunday ekan, O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsiyalarni, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish, rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalangan holda, ularning eng ilg'or modernizatsiyalashgan sohalaridan foydalangan holda jahon talab darajasiga javob bera oladigan yosh avlodni tarbiyalash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish hozirgi maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan ustuvor maqsadlardan biridir.

Adabiyotlar

1. Rudolf Shtayner . Valdorf pedagogikasi asoslari. -T. 2012. 236 b.
2. Karlgrén F. Ozodlik uchun ta'lim (nemis tilidan tarjima qilingan). Moskva. 1993.
3. "Valdorf maktabida ta'lim" (maqolalar to'plami). Moskva. 1995.
4. Valdorf pedagogikasining qoidalari (3 yoshdan 9 yoshgacha). Nairi, 2008.
5. Pinsky A. A. Valdorf pedagogikasi (antologiya). -T. "Ta'lim", 2003.
6. Fauzek Y. I. Montessori bolalar bog'chasi. -M. 1915.
7. Ketrin Mak Tamani. Montessori metodikasi. -T. 2018.
8. Pola Polk Lillard. Montessori metodikasi asosida ta'limga yondashuv. - Nyu-York: Schocken Books, 1996.
9. Barbara Isaks. Montessori yondashuvini tushunish: Amaliyotda dastlabki ta'lim . -T. 2012.
10. Aleksandra Loseva. Krugosvet entsiklopediyasi .
11. Montessori, Mariya // Centipedes - Bluegrass. - M: Sovet Entsiklopediyasi, 1954. - S. 260. - (Buyuk Sovet Entsiklopediyasi : [51 jild] / bosh tahrir. B. A. Vvedenskiy ; 1949-1958, 28-jild).
12. Djumanova M. D. Bola shaxsiga yo'naltirgan ta'limda Montessori pedagogikasi. "Zamonaviy ta'lim jurnali", 2016-yil.
13. Salavatova O. A. Montessori metodikasi asosida bolalarni rivojlantirish. "Tavricheskiy nauchniy obrozovatel. 2016.